



Advantages and problems of the contract for assigning a monetary claim to another person's benefit

Yusupbay ABDREYMOV¹, Khurmatoy ANVAROVA²

Berdakh Karakalpak State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025
Received in revised form
15 September 2025
Accepted 15 October 2025
Available online
25 November 2025

Keywords:

factoring,
financing,
advantages and challenges,
small and medium
enterprises,
debtor,
financial agency,
client,
liquidity.

ABSTRACT

In the current market economy, a financing agreement involving the assignment of monetary claims to another party's benefit, which was introduced by law as an innovation for entrepreneurs, is developing significantly. Factoring is a financial service used in business, through which a company (or individual) sells its future monetary claims (debts) from clients to a third party – a factoring company. In exchange, they receive immediate funds. This agreement not only facilitates working with local entrepreneurs but also creates considerable conveniences in financial transactions and settlements when dealing with foreign legal entities.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss5-pp108-114>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi afzalliklari va muammolari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

faktoring,
moliyalash,
afzalliklar va muammolar,
o'rta va kichik biznes,
debitor,
moliya agentligi,
mijoz,
likvid.

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlarga yangilik sifatida qonunga kiritilgan pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Faktoring – bu tadbirkorlikda ishlatiladigan moliyaviy xizmat bo'lib, u orqali korxona (yoki fuqaro) o'zining mijozlaridan kelajakda tushadigan pul talabnomasini (qarzni) uchinchi shaxs – faktoring kompaniyasiga sotadi. Buning evaziga u darhol pul mablag'ini oladi. Ushbu shartnoma nafaqat mahalliy tadbirkorlar bilan ishlash, balki xorijiy huquq subyektlari bilan ishlashda moliya va hisob-kitob sohasida ancha qulayliklarni vujudga keltiradi.

¹ PhD, Acting Associate Professor, Department of Civil and Business Law, Berdakh Karakalpak State University.
E-mail: abdreymov79@mail.ru

² Student, Berdakh Karakalpak State University. E-mail: hurmatoyanvarova@gmail.com

Преимущества и проблемы договора уступки денежного требования в пользу другого лица

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

факторинг,
финансирование,
преимущества и
проблемы,
малый и средний бизнес,
дебитор,
финансовое агентство,
клиент,
ликвидность.

В условиях современных рыночных отношений значительно развивается договор финансирования, предусмотренный законом как мера поддержки предпринимателей, позволяющая уступить денежное требование в пользу другого лица. Факторинг – это финансовая услуга, применяемая в предпринимательской деятельности, при которой предприятие (или физическое лицо) продаёт свою будущую дебиторскую задолженность (денежное требование) третьей стороне – факторинговой компании, получая взамен немедленное финансирование. Этот договор облегчает не только работу с местными предпринимателями, но и создаёт значительные удобства в финансово-расчётной сфере при взаимодействии с иностранными юридическими лицами. Однако, как и в любой удобной системе, здесь также существуют определённые проблемы. В настоящее время ведутся правовые исследования по устранению этих проблем.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sohasida tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga turli moliyaviy qulayliklar yaratish har doim muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda tadbirkorlik subyektlari va bank va moliya tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarini fuqarolik-huquqiy shartnomalari orqali tartibga solish bugungi bozor qonuniyatlariga har tomonlama mos keladi. Bunday shartnomalar faktoring–pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi deb yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi FK 749-moddasiga ko'ra, Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi bo'yicha bir taraf (moliya agenti) ikkinchi tarafga (mijozga) shu mijozning (kreditorning) uchinchi shaxsga (qarzdorga) tovarlar berishidan, uning ishlarini bajarishidan yoki unga xizmatlar ko'rsatishidan kelib chiqadigan pul talabnomasi hisobidan pul mablag'larini beradi yoki berish majburiyatini oladi, mijoz esa moliya agentiga ushbu pul talabnomasini beradi yoki berish majburiyatini oladi [2]. Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi ham ichki ham xalqaro maydonda moliyaviy muammolarni kamaytiradi. Ayniqsa, o'rta va kichik biznes egalari uchun, chunki kichik biznes o'sishi bilan moliyaviy majburiyatlar ham kengayadi va bu kompaniya egalari ko'proq yukni keltirib chiqarishi mumkin. Ko'pgina kichik biznes egalari o'z cho'ntaklariga sho'ng'ish yoki ko'proq moliyalashtirish uchun oila va do'stlarni izlash o'rniga faktoring shartnomalariga murojaat qilishadi [3]. Ushbu moliyaviy xizmatlar milliy bozorning elementlari sifatida bugungi kunda xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashning eng muhim vositasini tashkil etadi, bu esa o'zbek kompaniyalariga mahsulot va xizmatlarni sotishning yangi bozorlariga kirishda o'z tavakkalchiliklarini kamaytirish, shuningdek, xorijiy kompaniyalarga O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishda tavakkalchiliklarni kamaytirish imkonini beradi. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasida faktoring

xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida farmon chiqargan, unga ko'ra moliya agentlari va tadbirkorlarga vazifalar belgilab berilgan. Ushbu farmonga muvofiq faktoring xizmatlarini amalga oshirish uchun: Markaziy bankning Faktoring xizmatlari elektron platformasini (keyingi o'rinlarda – Faktoring platformasi) joriy qilish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Faktoring platformasida quyidagi imkoniyatlar nazarda tutilsin:

- tadbirkorlik subyektlari tomonidan faktoring xizmatlaridan foydalanish uchun pul talabnomalari to'g'risidagi ma'lumot va hujjatlarni kiritish;
- pul talabnomasiga asos bo'lgan hujjatlarning haqiqiylikini tekshirish, shuningdek, qarzdorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor yig'ish va ularning real vaqt rejimida tahlil qilinishini ta'minlash orqali moliyalashtirish jarayonini avtomatlashtirish;
- kredit tashkilotlari tomonidan ta'minot zanjiri ishtirokchilariga faktoring xizmatlari ko'rsatilishi uchun qulay, tezkor va xavfsiz texnologik infratuzilmani taqdim etish [4].

2024-yildan elektron faktoring platformalari yo'lga qo'yildi. Bu esa tadbirkorlarga ancha qulayliklarni vujudga keltirdi, negaki endi tadbirkorlar banklarga tashrif buyurmasdan platforma orqali pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish xizmatidan foydalana oladi, bu esa vaqt sarflash va ortiqcha xarajatni oldini oladi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2024-yilda faktoring xizmatlari hajmi 1,9 trln so'mga yetib, shundan tijorat banklari 1,6 trln so'mi (85 foiz) va 0,3 trln so'mi (15 foiz) mikromoliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan. Shuningdek, jami ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining 58 foizi yoki 1,1 trln so'mi elektron faktoring platformalari orqali amalga oshirildi [5]. Platformada boshqa qulaylik va boshqa vazifalar ham aniq qayd etib o'tilgan. Biroq, moliyaviy tashkilotlar va xususiy kompaniyalar tomonidan ham, ularning potensial iste'molchilari tomonidan ham ushbu xizmatlarni ko'rsatishga katta qiziqish bilan bir qatorda, vaziyatni keskinlashtirmasa, O'zbekistonda faktoring va forfeyting amaliyotining to'g'ri tarqalishiga hissa qo'shmaydigan bir qator muammolarni ko'rish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadbirkorlar uchun pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash xizmatlarining rivojlanishi uchun bir qancha afzalliklar yaratadi.

1. Likvidlikning oshishi.

Faktoring kompaniyalarga debitorlik qarzlari uchun darhol pul olish imkonini beradi, bu esa ularning likvidligini yaxshilaydi. Bu, ayniqsa, mavsumiy tebranishlarni boshdan kechiradigan yoki operatsion xarajatlarni qoplash uchun darhol mablag'ga muhtoj bo'lgan korxonalar uchun juda muhimdir.

2. Moliyaviy xavflarni kamaytiradi.

Faktoring kompaniyasi qarzdorlar tomonidan debitorlik hisob varaqalarining to'lanmaslik xavfini o'z zimmasiga oladi. Bu kompaniyani moliyaviy yo'qotishlardan himoya qiladi va moliyaviy risklarni kamaytiradi.

3. Debitorlik qarzdorligini boshqarish osonlashadi.

Faktoring kompaniyasi to'lovlarni yig'ish va debitorlik qarzlarni boshqarish bilan shug'ullanadi. Bunda faktoring xizmatidan foydalanuvchi kompaniya ushbu vazifalarni mustaqil hal qilishdan ozod bo'ladi va asosiy biznesiga e'tibor qaratishi mumkin bo'ladi.

4. Qisqa muddatda moliyalashtirish imkoniyati.

Faktoring murakkab kreditlash jarayonidan o'tmasdan moliyalashtirishdan imkonini beradi. Korxonalar ushbu mablag'ni darhol asosiy faoliyatlariga yo'naltirishlari mumkin.

5. Faktoring xizmati shartlarining moslashuvchanligi.

Faktoring moliyalashtirishning moslashuvchan shartlarini taqdim etadi. Kompaniyalar o'zlari istagan debitorlik qarzlarni sotishlari, kelishilgan miqdorda oldindan mablag' olishlari va xizmat ko'rsatishning o'zlariga qulay bo'lgan darajasidan foydalanishlari mumkin [6].

Bundan tashqari kreditdan tezroq va qulay hisoblanadi. Pul talabnomasidan boshqa shaxs evaziga voz kechish shartnomasida moliya agenti sifatida banklar va boshqa kredit tashkilotlari tuzishi mumkin. Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasining quyidagi muhim afzalliklari ham bor:

- garov ta'minoti talab qilinmaydi (garov sifatida debitorlik qarz qaraladi);
- tadbirkorlarning aylanma mablag'lari uzluksizligi ta'minlanadi;
- mablag'larning maqsadli ishlatilishi talab etilmaydi [7].

Faktoring xizmatlari va kredit amaliyotlari bir-biridan farq qiladi. Ushbu shartnoma xizmatlari qisqa muddatda, ko'pincha uzog'i bilan kunda, kredit esa 1-5 kungacha muddatda rasmiylashtiriladi. Jumladan, faktoring xizmatida garov talab etilmaydi, kredit uchun esa garov shart hisoblanadi. Ko'p holatlarda faktoring xizmati korporativ, kichik va o'rta biznes vakillari, ishlab chiqaruvchilar va savdo kompaniyalariga kerakli hisoblanadi.

Demak, faktoring xizmati orqali tadbirkorlarning aylanma mablag'lari uzluksizligi va eng muhimi, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi ta'minlanadi. Faktoring xizmatidan asosan kechiktirilgan to'lovli savdolarida foydalaniladi va korxonalarga tezkor moliyaviy resursga ega bo'lish imkonini beradi. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlar bilan uchrashuvda "Tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam" – deya ta'kidlaganlar. Shu sababli, joriy yilning o'zida tadbirkorlar faoliyati uchun g'oyat muhim bo'lgan 5 ta qonun, 101 ta farmon va qarorlar qabul qilindi va faktoringga keng yo'l ochilgani natijasida shu yilning o'zida 100 million dollarlik bunday xizmatlar ko'rsatilgan [1]. Ushbu farmon va boshqa normativ-hujjatlar mamlakatimizda faktoring xizmatlarini rivojlantirishga samarali yordam beradi.

Shunga qaramay muammolar ham yoq emas, albatta. Bunday muammoli jihatlarga, eng avvalo, mazkur faoliyatni huquqiy tartibga solish va davlat tomonidan qonunchilikni qo'llash amaliyoti kiradi. Bunda shuni tushunish kerakki, pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalashtirish munosabatlarini huquqiy tartibga solish tadbirkorlik faoliyati sohasi sifatida sof sivilistik (fuqarolik-huquqiy) jihatlarga keltirilishi mumkin emas. U kompleks xususiyatga ega bo'lib, soliqqa tortish sohalari, bank faoliyati (kredit tashkilotlari faoliyati), valyuta nazorati, sug'urta va hokazolar bilan bog'liq munosabatlarni tegishli tartibga solishni ham o'z ichiga oladi.

Bunday keng yondashuvni hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotida faktoring va forfeyting munosabatlarini tartibga solishning ziddiyatsiz, shu jumladan sivilistik jihatdan aniq va shaffof sxemasini nazar da tutishning imkoni bo'lmadi. O'zbekiston misolida aytish mumkinki, milliy qonunchilik va ishbilarmonlik amaliyotida forfeyting operatsiyasi ma'lum emas. Biroq bu holat mazkur munosabatlar qonunchilik tomonidan tartibga solinishi zarur emas degan xulosa chiqarishga asos bo'lmaydi. Aksincha, huquqiy va iqtisodiy tizimlari rivojlanib borayotgan davlatlar amaliyoti ko'rsatishicha, bozorning zamonaviy qurilmalari lozim darajada huquqiy ta'minlanmaganligi ularning vujudga

kelishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda faktoring va forfeiting operatsiyalari huquqiy bazasining shakllanish jarayoni qonunchilik tomonidan tartibga solishda ham va ilmiy ta'minlashda ham davomiylik, tizimlilik va konseptual yondashuvni talab qiladi.

Shu bilan birga, aslida, muammo kengroq xarakterga ega. Aslini olganda, boshqa bir masala hal etilmagan bo'lib chiqmoqda: moliya agentlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qanday bo'lishi kerak?

Moliya agentlari faoliyatini maxsus tartibga solish zarurati hech bo'lmaganda shundan kelib chiqadiki, iqtisodiy nuqtai nazardan moliyalashtirishni doimiy tadbirkorlik faoliyati sifatida taqdim etish kredit tashkilotlarining faoliyati bilan bir qatorda davlat kredit-moliya tizimining muhim elementini tashkil etadi va shu ma'noda davlat valyuta-kredit siyosati doirasida hisobga olinishi va tartibga solinishi kerak.

Shu jumladan, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish talablariga javob beradigan variantlardan biri sifatida o'z faoliyatining yagona standartlarini ishlab chiqadigan va bunday faoliyatni baholaydigan, tegishli sohalarda sud-hakamlik amaliyotini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va bunday faoliyatni vakolatli davlat organlari bilan muvofiqlashtiradigan moliyaviy agentlarning professional o'zini-o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarini tashkil etish yo'lini ko'rsatish lozim va bunday faoliyatni davlat tomonidan tanlangan strategiyaga qarab, Markaziy bank bo'lishi mumkin bo'lgan vakolatli davlat organlari bilan muvofiqlashtirishni amalga oshiradi. Qonunchilikka ko'ra, kafolatlar berish tashkiloti va faktoring tashkilotlari Markaziy bankda hisob ro'yxatidan o'tkazilishi hamda ularning faoliyati mazkur tuzilma tomonidan tartibga solinishi va nazorat qilinishi belgilangan [8].

Xususiy muammolar ham bor. Ularning to'liq ro'yxatini bermasdan va u yoki bu masalalar bo'yicha olimlarning munozaralari tafsilotlariga chuqurlashmasdan, quyidagilarga e'tibor qaratamiz:

1. Oddiy sessiyani chegaralash sohasida, talab qilish huquqlaridan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi va faktoring shartnomasi sohasida esa, umumiyroq ma'noda, shakllangan va barqaror sud amaliyotining mavjud emasligi;

2. "Kelgusi talablar"dan voz kechish sohasida shakllangan va barqaror sud amaliyotining mavjud emasligi;

3. O'zbekiston huquqiy tizimi atamalarida adekvat va ziddiyatsiz tavsiflash (ya'ni, bizning kontinental huquq tizimimizga begona bo'lgan "ta'minlovchi manfaat"/ "ta'minot sifatida talabdan voz kechish evaziga moliyalashtirish" (anglo-sakson modeli) konsepsiyasiga havola qilmagan holda "regress faktoring");

4. Maxfiy faktoringga milliy huquqiy amaliyotga ruxsat berish;

5. Kredit instrumentlariga o'xshash bo'lgan pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalashtirish bo'yicha operatsiyalarni QQSdan ozod qilish orqali moliya agentlarining soliq yukini yengillashtirish;

6. Yetkazib beruvchi tashkilotning hisobvaraqlariga eksport tushumining rasmiy tushumi mavjud bo'lmaganda, xalqaro faktoring operatsiyalarida eksport qiluvchi tashkilotlarga QQSni qoplash masalasi ijobiy hal etilganda;

7. Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalashtirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urtalash masalalarini hal etish va h.k.

Ushbu va boshqa ko'plab muammolarni hal qilish ba'zan an'anaviy sxemalar va ko'rsatmalardan chetga chiqishni istamaydigan har qanday davlat apparatiga (bu yerda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud hokimiyati organlarini ajratmagan holda) xos

bo'lgan fikrlashning biroz qotib qolganligini bartaraf etish bilan bog'liq bo'ladi. Aynan shuning uchun ushbu sohada ishtirok etayotgan kompaniyalarning u yoki bu masalalar bo'yicha yagona fikrni shakllantirish, davlatga ularni hal etishning mamlakat va uning iqtisodiyoti uchun foydali bo'lgan eng maqbul yo'llarini ko'rsatish imkonini beradigan ijobiy hamkorlik tajribasi g'oyat muhimdir.

XULOSA

Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi bozor iqtisodiyotida tadbirkorlar uchun muhim qulaylik va ularni rivojlantirishning eng samarali yollaridan, negaki faktoring orqali yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlar moliyaviy mablag'larga tez va oson ega bo'lishmoqda va yuqori aytilganidek garov ta'minoti talab qilinmaydi. Huquq subyektlari uchun moliyaviy xavflarni kamaytiradi va asosiysi likvidlarni oshirib beradi. Faktoring xizmatlari xorij tadbirkorlari tomonidan ko'p foydalaniladigan shartnoma hisoblanadi. Faktoring dunyoda mashhur bir qator kompaniyalar: Acer (kompyuter texnikalari, Tayvan), Parmalat (oziq-ovqat mahsulotlari, Italiya Lewis Global Toys (bolalar uchun tovarlar, AQSH) rivojlanishining barcha bosqichlarida qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida xizmat qilgan [9]. Xorij tajribasini qo'llab ko'rish orqali O'zbekistonda pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi sezilarli darajada rivojlantirish mumkin O'zbekistonda hali bu shartnoma turi o'z rivojini topgani yo'q, negaki hali milliy qonunchilik va ishbilarmonlik amaliyotida forfeyting operatsiyasi ma'lum emas. Hozirda nafaqat pul talabnomasining turi bo'lgan "bo'lajak talabnoma"lar, balki pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash bo'yicha ham hali barqaror va izchil sud amaliyoti mavjud emasligi, maxfiy faktoringga ruxsat yo'qligi, eksport qiluvchilar uchun QQS ni qoplanishi kabilar tadbirkorlarni faktoring shartnomasini qo'llash borasida o'ylantirmoqda. Qonunchilik soliqlardan ozod etish kabi qo'shimcha qulayliklarni tashkil etsa, tadbirkorning faktoring xizmatidan foydalanish safi bir muncha ko'payishi aniq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev – Tadbirkorning yutug'i- butun xalqimizning yutug'i <https://president.uz/uz/lists/view/7778>.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi [2024 yil 15 sentyabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan] – T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2024 y. – 616 b. 561-bet 1113-moddasi.
3. Understanding Factoring Agreements and Contracts | altLINE <https://altline.sobanco.com/understanding-factoring-agreements-and-contracts/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi «Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-109-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/7061653>
5. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги – расмий хабарлар, тезкор янгиликлар, таҳлилий-танқидий материаллар, қонун ҳужжатлари, фото ва видеорепортажлар. https://uza.uz/oz/posts/erkin-gadoyev-biznesni-moliyaviy-qollab-quvvatlashning-samarali-vositalari-joriy-etiladi_712758
6. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Факторинг хизматлари бозори шарҳи 2024 йил якуни бўйича.
7. Tadbirkorlar uchun kreditdan tezroq va qulayroq xizmat – faktoring.

8. <https://platina.uz/o'z/2024/11/26/tadbirkorlar-uchun-kreditdan-tezroq-va-qulayroq-xizmat-factoring>
9. Факторинг хизматлари ва уларнинг эътиборли жиҳатлари – Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг молиявий саводхонлик бўйича ахборот-таълим веб-сайти <https://finlit.uz/oz/articles/credit/factoring-finlituz/?mobile=Y>
10. Muschella D. The Italian Factoring Industry [Elektronniy resurs] // World Bank Conference on the Factoring Industry as a Key Tool for SME Development in EU Accession Countries. – Warsaw, October 23-24, 2003. – URL: <http://lnweb18.worldbank.org>